
sati mavjudligidan dalolat beradi. Ya'ni, ota-onalar farzandiga faqat telefon bilan kifoyalanishni tavsiya etib, boshqa gadjetlarni berishni ortiqcha deb topgan bo'lishi mumkin.

**Farzandlar internetdan foydalanish vaqti**




*Izoh: Farzandlarning kuniga internetdan foydalanish vaqti bo'yicha natijalar. Ustunlar 0–2 soat, 2–4 soat, 4–6 soat va 6 soatdan ortiq kategoriyalar bo'yicha nechta ota-ona farzandining shuncha vaqt internet ishlatishini bildirganini ko'rsatadi.*

Kunlik internetdan foydalanish davomiyligi borasida ota-onalar ancha cheklovchi yondashuvni ko'rmoqda. Respondentlarning 68% farzandi kuniga atigi 0–2 soat internetdan foydalanishini aytgan. Yana 22% ota-onalar farzandlari 2–4 soat atrofida onlayn bo'lishini ta'kidlashgan. Faqat 7% bola kuniga 4–6 soat, va atigi 2,5% bola 6 soatdan ortiq vaqtini internetda o'tkazadi. Bu ko'rsatkichlar aksariyat oilalarda bolalarning ekran qarshisida o'tkazadigan vaqti qat'iy nazorat qilinishi yoki tabiiy ravishda cheklanganini bildiradi.

Ta'kidlash joizki, pediatrlar va psixologlar erta yoshdan boshlab bolalarning ortiqcha ekran vaqtini cheklash lozimligini uqdirib kelishadi. Masalan, sog'lom rivojlanish uchun bolalarning ko'p vaqtini real hayotdagi faoliyatga sarflashi, raqamli mediani esa muvozanat bilan ishlatishi zarur, deb hisoblanadi. Bizning so'rov ota-onalar ushbu tavsiyalarga muvofiq ravishda ko'p hollarda farzandlariga kuniga 1–2 soatdan ortiq internetdan foydalanishga ruxsat bermayotganini ko'rsatmoqda. Shuni ham hisobga olish kerakki, farzandlar ulg'aygan sari ularning internetdan foydalanish vaqti oshishi mumkin. Ota-onalarning aksariyati hozircha kichik va o'rta yoshdagi bolalarni tarbiyalayotgani bois ular kunlik limitlarni qat'iy ushlab turishmoqda. Kattaroq yoshdagi o'smirlar esa ko'proq onlayn bo'lishni istashi, tabiiy. Bu ota-onalar uchun kelgusida yangi sinovlar degani.

**Xulosa** qilib aytganda, raqamli dunyo sharoitida ota-onalarning pedagogik va raqamli madaniyatini oshirish dolzarb vazifa bo'lib, bu jarayon ta'lim muassasalari, jamiyat va davlat miqyosida tizimli yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari oilada sog'lom raqamli muhitni shakllantirish va farzandlarning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Helsper E.J. The Digital Disconnect. The Social Causes and Consequences of Digital Inequalities. London, SAGE Publications, 2021, 232 p.

(2). Mascheroni G., Ponte C., Jorge A. Digital Parenting. The Challenges for Families in the Digital Age. Göteborg, Nordicom, 2018, 187 p.

(3). Юсупова Н.А., Раҳматова Г.Ш. Оилада болаларнинг рақамли муҳитдаги тарбияси ва ахборот хавфсизлиги масалалари. Тошкент, "Фан", 2022, 154-бет.

**Kubayeva Shoira Toshmurodovna (Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi, TATU Samarqand filiali dotsenti; sh.kubaeva@gmail.com)**

## INNOVATSION TA'LIM KONSEPSIYASI

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada innovatsion ta'lim konsepsiyasining falsafiy-metodologik asoslari onto-epistemologik yondashuv doirasida tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonining ontologik mohiyati – insonning bilish va mavjudlik tajribasini shakllantiruvchi tizim sifatida talqin etilishi hamda epistemologik jihatdan bilim hosil qilishning zamonaviy mexanizmlari ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *innovatsion ta'lim, ta'lim falsafasi, bilim nazariyasi, ta'lim ontologiyasi, raqamli transformatsiya, kognitiv subyekt, ta'lim modeli.*

**Кубаева Шоира Тошмуродовна (исследователь Самаркандского государственного университета, доцент Самаркандского филиала ТУИТ; sh.kubaeva@gmail.com)**

## ИННОВАЦИОННАЯ КОНЦЕПЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.*** *В статье в рамках онто-эпистемологического подхода анализируются философско-методологические основы инновационной концепции образования. Рассматривается онтологическая сущность образовательного процесса как системы, формирующей опыт познания и бытия человека, а также раскрываются современные механизмы формирования знаний в эпистемологическом аспекте.*

***Ключевые слова:*** *инновационное образование, философия образования, теория познания, онтология образования, цифровая трансформация, когнитивный субъект, образовательная модель.*

**Kubayeva Shoira Toshmurodovna (Researcher, Samarkand State University, Associate Professor, Samarkand Branch of TUIT; sh.kubaeva@gmail.com)**

## INNOVATIVE EDUCATION CONCEPT

***Annotation.*** *This article analyzes the philosophical and methodological foundations of the innovative education concept within the framework of an onto-epistemological approach. It interprets the ontological essence of the educational process as a system that shapes human experience of cognition and existence, and reveals modern mechanisms of knowledge formation from an epistemological perspective.*

***Keywords:*** *innovative education, philosophy of education, theory of knowledge, educational ontology, digital transformation, cognitive subject, educational model.*

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri ta'lim tizimining uzluksiz yangilanib borishi va ilmiy-texnologik rivojlanish talablariga moslashuvidir. Raqamli transformatsiya, globallashuv va axborot oqimlarining keskin ortishi sharoitida an'anaviy ta'lim paradigmalarining imkoniyatlari tobora cheklanib, innovatsion ta'lim konsepsiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Shu ma'noda ta'lim jarayonini faqat bilim uzatish tizimi sifatida emas, balki insonning bilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi, tafakkurini shakllantiruvchi va shaxsiy mavjudlik tajribasini boyituvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'lumki, innovatsion ta'lim konsepsiyasi deganda bilishni adaptatsion, kreativ, refleksiv jarayon hamda uni yaratish va qo'llashga yo'naltiradigan nazariy-metodologik model tushuniladi. Innovatsion ta'lim konsepsiyasini chuqur anglash, avvalo, uning ontologik va epistemologik asoslarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Ontologik yondashuv ta'limning mohiyatini, uning mavjudlik shakllari va funksional vazifalarini izohlashga xizmat qilsa, epistemologik tahlil bilim hosil qilish, o'zlashtirish va transformatsiya qilish mexanizmlarini ochib beradi. Mazkur ikki metodologik yo'nalishning uyg'unligi ta'lim jarayonining zamonaviy rivojlanish qonuniyatlarini yaxlit tizim sifatida tushunishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, raqamli pedagogika va sun'iy intellekt asosida tashkil etilayotgan ta'lim modellarida o'quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol kognitiv subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida subyekt-obyekt munosabatlarining qayta talqin etilishini, bilimning tayyor mahsulot emas, balki hamkorlikda yaratiladigan jarayon sifatida qaralishini taqozo etadi. Aynan shu holat innovatsion ta'limning falsafiy-metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda hodisa va jarayonlarni chuqur anglash faqat empirik tavsif bilan cheklanib qolmay, ularning mavjudlik tabiati hamda bilish mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida o'rganishni taqozo etadi. Shu jihatdan, onto-epistemologik tahlil tadqiqot obektining borliqdagi real maqomini aniqlash (ontologik jihat) hamda u haqidagi ilmiy bilimni shakllantirish usullari va mezonlarini belgilash (epistemologik jihat)ni o'zaro uyg'unlikda tadqiq etishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ilmiy izlanishning nazariy poydevorini mustahkamlab, o'rganilayotgan hodisaning mohiyatini yanada aniqroq ochib berish imkonini yaratadi.

Ontologik jihatdan tadqiqot obyektining tuzilishi, funksional xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinadi. Epistemologik nuqtayi nazardan esa mazkur obyekt haqidagi bilimlarning manbalari, tadqiqot metodlari, dalillarning haqqoniylik darajasi hamda ilmiy xulosalarning ishonchliligi asoslab beriladi. Natijada onto-epistemologik yondashuv nazariy va amaliy izlanishlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, tadqiqotning metodologik yaxlitligini kafolatlaydi.

Innovatsion ta'lim konsepsiyasini falsafiy-metodologik jihatdan asoslash masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar doirasida yoritilgan. Xususan, ta'limni jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida talqin etuvchi konsepsiyalar G'arb va Sharq pedagogik-falsafiy maktablarida keng rivojlangan. Dewey, Bruner, Piaget va Vigotskiylarning konstruktivistik ta'lim nazariyalari o'quvchini bilimni mustaqil shakllantiruvchi subyekt sifatida talqin etish orqali innovatsion pedagogikaning nazariy poydevorini yaratgan. Ularning qarashlarida ta'lim jarayoni tayyor bilimni uzatish emas, balki bilish faoliyatini tashkil etish jarayoni sifatida izohlanadi.

Zamonaviy ta'lim falsafasida onto-epistemologik tahlil metodologiyasi Heidegger, Gadamer, Habermas, Foucault kabi mutafakkirlarning bilish va mavjudlik haqidagi qarashlari asosida shakllangan. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini nafaqat didaktik tizim, balki insonning mavjudlik tajribasini boyituvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ayniqsa, bilishning subyektivligi, tafakkurning kontekstual xarakteri va bilimning diskursiv tabiatiga oid g'oyalar innovatsion ta'lim konsepsiyasini falsafiy asoslashda muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda raqamli pedagogika, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt asosidagi o'qitish tizimlariga bag'ishlangan tadqiqotlar innovatsion ta'limning amaliy modelini shakllantirishda yetakchi o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim modellarida shaxsning bilish, tahlil qilish va ijodiy yechim topish salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Milliy ilmiy adabiyotlarda ham ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya masalalari tizimli tadqiq etilmoqda. O'zbekiston ta'lim islohotlari doirasida ilgari surilgan "uzluksiz ta'lim" va "raqamli ta'lim muhitini shakllantirish" konsepsiyalari innovatsion ta'limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi normativ va metodologik asoslarni belgilab berdi.

Mazkur tadqiqotda metodologik asos sifatida falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, komparativ tahlil hamda hermenevtik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Ontologik tahlil ta'limning mohiyatini va mavjudlik shakllarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, epistemologik tahlil bilim hosil qilishning zamonaviy mexanizmlarini yoritishga xizmat qildi. Shuningdek, konseptual model yaratishda deduktiv va induktiv mantiqiy usullar qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasining integrativ xarakteri innovatsion ta'lim konsepsiyasini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish hamda uning nazariy va amaliy jihatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

**Tahlil va Natijalar (Analysis and results).** Innovatsion ta'lim konsepsiyasini onto-epistemologik tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra, faqat axborot uzatish mexanizmi bo'lib qolmay, balki shaxsning bilish, o'zini anglash va ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi kompleks tizimga aylanmoqda. Ontologik nuqtayi nazardan ta'lim inson mavjudligining ijtimoiy-madaniy shakllaridan biri bo'lib, u shaxs va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ta'limni "tayyor bilimlar majmuasi" emas, balki mavjudlik tajribasini konstruksiyalovchi jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi.

Epistemologik tahlil natijalari bilim hosil qilish jarayonida subyektning faolligi keskin ortayotganini ko'rsatdi. An'anaviy ta'lim modelida o'quvchi, asosan, bilimni qabul qiluvchi obyekt sifatida talqin etilgan bo'lsa, innovatsion ta'lim sharoitida u bilimni yaratishda bevosita ishtirok etuvchi kognitiv subektga aylanadi. Bu esa ta'lim jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda raqamli platformalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Natijada bilim tayyor mahsulot emas, balki hamkorlikda quriladigan jarayon sifatida qaraladi.

Onto-epistemologik tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion ta'limda subyekt–obyekt munosabatlari qayta talqin qilinadi. O'qituvchi bilim uzatuvchi markaziy figuradan ta'limiy jarayonni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi fasilitatorga aylanadi. O'quvchi esa mustaqil qaror qabul qiluvchi, muammo yechimini topuvchi va refleksiv tafakkur egasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'zgarish ta'limning ontologik asosida erkinlik va ijodkorlik tamoyillarining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuningdek innovatsion ta'lim konsepsiyasining inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berdi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllangan ta'lim modellari shaxsda nafaqat kasbiy bilim, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi kadrlarni tayyorlash imkonini yaratadi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan onto-epistemologik tahlil innovatsion ta'lim konsepsiyasining nazariy poydevorini mustahkamlab, ta'lim jarayonini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Mazkur tadqiqotda olib borilgan tahlillar ta'lim jarayonining an'anaviy "bilim uzatish" modelidan shaxsning bilish, o'zini anglash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan dinamik tizimga transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon ta'limning ontologik mohiyatini qayta talqin qilish zarurligini yuzaga chiqardi.

Endilikda zamonaviy ta'lim sharoitida bilim hosil qilish jarayonida subektning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa interfaol pedagogik metodlar, raqamli ta'lim muhitlari va loyiha asosida o'qitish texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli transformatsiya ta'limning epistemologik tuzilishini tubdan o'zgartirib, bilish jarayonini individual ong chegarasidan chiqib, tarmoqli axborot makoni bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu holat ta'limning yangi falsafiy modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Xulosa.** Shuningdek, innovatsion ta'lim asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni zamonaviy jamiyat talablariga mos, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion ta'lim konsepsiyasini onto-epistemologik asosda tahlil qilish ta'lim nazariyasini yangi bosqichga olib chiqish, pedagogik amaliyotni modernizatsiya qilish hamda barqaror taraqqiyot uchun zarur intellektual salohiyatni shakllantirishga metodologik poydevor yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Dewey J. Democracy and Education. New York, "Macmillan", 1916.

(2). Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York, "Continuum", 1970.

(3). Heidegger M. Being and Time. Oxford, "Blackwell", 1962.

(4). Foucault M. The Archaeology of Knowledge. London, Routledge, 1972.

(5). Vigotski L.S. Mind in Society. The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard Uni versity Press, 1978.

(6). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, Blackwell Publishing, 2010.

(7). Toffler A. The Third Wave. New York, Bantam Books, 1980.

(8). UNESCO. Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action. Paris, UNESCO, 2020.

(9). Abdizoitovich G. Educational Problems in The Information Society. Emergent, Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). 2025, T. 6, №.4, p. 5.

(10). Kubaeva S. Reason and thinking: the importance of intellectual games in scientific creativity.Western European Journal of Historical Events and Social Science. 2024, T. 2, №.11, c. 26–30.

(11). Tashmuradovna K.S. Philosophical reflection of the idea of the game. 2022.

(12). Mardonov R. Historical and philosophical analysis of Eastern and Western education systems International Journal for Advanced Research In Science & Technology/A peer reviewed international journal. www. ijarst. in. 2021, T. 11, №.02, c. 252–256.



**Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li (UrDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD) (Xorazm viloyati, Urganch shahri; sh.xudayberganov.urdu@mail.ru; ORCID-0009-0007-9006-8998), Abdullayeva Xurshida Shuxrat qizi (Urganch shahar 5-DMTT tarbiyachisi, UrDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti; abdullayevaxurshida04@gmail.com)**


## TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI GENDER XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH


***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalarni gender tenglik tamoyillari asosida maktab ta'limiga intelektual tayyorlash masalalari yoritilgan. Gender tenglik tushunchasining pedagogik mohiyati, uning bolalar shaxsini shakllantirishdagi o'rni, maktabga psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tayyorlov guruhlarida gender sezgir ta'lim muhitini yaratish, tarbiyachining roli, o'yin va mashg'ulotlar orqali teng imkoniyatlarni ta'minlashning amaliy mexanizmlari ko'rsatib berilgan.*



***Kalit so'zlar:*** *gender tenglik, tayyorlov guruhi, maktabga tayyorlash, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, gender sezgirlik, intelektual tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv, tanqidiy tafakkur, ematsional rivojlanish.*